



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 27 - iyun

VI-62-108-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 5-may kunidagi “Davlat hokimiyati boshqaruvi organlarining ochiqligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-369-sonli Qonunining tumandagi ijrosi bo‘yicha tuman hokimligi Axborot xizmati rahbarining axboroti to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hokimiyati boshqaruvi organlarining ochiqligi to‘g‘risida”gi Qonunining tumandagi ijrosi haqida tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari, matbuot kotibining axborotini tinglab va muhokama qilib, xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hokimiyati boshqaruvi organlarining ochiqligi to‘g‘risida”gi Qonunining tumandagi ijrosi haqida tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari, matbuot kotibining axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimi o‘rinbosarlari, tashkilot, korxonalar va muassasa rahbarlari bilan hamkorlikda:

bo‘limlar, muassasalar, tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan axborotdan hammaning foydalanishi mumkinligini, uning o‘z vaqtida berilishi va ishonchliligini ta‘minlash;

tashkilot faoliyatining oshkoraligi va shaffofligini ta‘minlash;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to‘g‘risidagi axborotni izlash, olish va tarqatish erkinligini ta‘minlash;

tashkilotlar faoliyati to‘g‘risida ularning rasmiy veb-saytlarida joylashtiriladigan axborotning o‘z vaqtida berilishini va ishonchliligini ta‘minlash yuzasidan tegishli choralar ko‘rish vazifalari topshirilsin.

3. Tuman hokimligi axborot xizmati taalluqli davlat va xo‘jalik yurituvchi organlar rahbarlari bilan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan o‘tkaziladigan ommaviy tadbirlar (majlislar, kengashlar, uchrashuvlar, matbuot konferensiyalari, brifinglar, seminarlar, davra suhbatlari va boshqalar) to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni;

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining davlat hokimiyati va boshqaruvining boshqa organlari, jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek xorijiy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar;

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati sohasiga taalluqli bo‘lgan tarmoqning (hududning) holatini va uning rivojlanish sur‘atini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlar haqidagi, shu jumladan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar;

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan o‘tkaziladigan (tashkil etiladigan) ochiq tanlovlar (tenderlar) va kimoshdi savdolari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar;

- bo‘sh ish o‘rinlari, ishga qabul qilish shartlari va bo‘sh ish o‘rinlarini egallash uchun nomzodlarga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bilan aholini xabardor qilib borish topshirilsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati, tuman hokimligi bo‘limlari, tashkilot va muassasalar bilan birgalikda matbuot konferensiyalari, brifinglar, seminarlar, davra suhbatlari tashkil etish;

- ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish bo‘yicha media-reja tayyorlash va amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

5. Tuman hokimligi matbuot xizmati va “Angor yog‘dusi” gazetasi tahririyati (G.Jumayeva)ga amalga oshirilayotgan ishlarni muntazam ravishda ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Angor tuman Kengashining Axborot siyosati va mahalliy davlat organlarida ochiqlikni ta‘minlash masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Q.Ergashev) zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



Q.Mardonov